

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TASHMATOVA GULNARA RAFAILOVNA

**NOFILOLOGIK YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI CLIL TEXNOLOGIYASI
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(iqtisod yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Tashmatova Gulnara Rafailovna

Nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini
CLIL texnologiyasi asosida rivojlantirish metodikasi.....3

Ташматова Гулнара Рафаиловна

Методика развития профессиональной коммуникативной компетенции
студентов нефилологических направлений на основе технологии CLIL
.....25

Tashmatova Gulnara Rafailovna

Methodology of developing professional communicative competence in students
of non-philological specializations based on CLIL technology49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....52

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TASHMATOVA GULNARA RAFAILOVNA

**NOFILOLOGIK YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI CLIL TEXNOLOGIYASI
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI**
(iqtisod yo‘nalishi misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.Phd/Ped9445 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zokirov Muxtorali Turdaliyevich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Ahmedova Laylo Tolibjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Saydaliyev Saidumar Saydaliyevich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 raqamli Ilmiy kengashning «31» oktabr 2025-yil soat 8⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy ko'chasi, 58A-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (591 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «18» oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «18» oktabr dagi 8 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Kadirova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Mamajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

D.A.Ganiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy Seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda globalizatsiya va xalqaro integratsiya sharoitida chet tilida kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish turli madaniyatlar vakillari bilan samarali hamkorlik va ishbilarmonlik aloqalarini olib borish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimi chet tilini o'rgatishni kasbiy tayyorgarlik bilan birlashtiradigan fanlararo yondashuvni yaratish zarurati bilan yuzlashmoqda. Chet tilini o'rganishning ahamiyati nafaqat madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda, balki ko'p madaniyatli muhitda kasbiy muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda ham namoyon bo'ladi. Shu sababli, talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish zarurati yuzaga kelmoqda.

Dunyoda fanlarni chet tilida o'qitish jarayonida CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasini qo'llash dolzarb pedagogik yo'nalishlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiya talabalarga o'z mutaxassisliklari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, shuningdek, xalqaro ilmiy manbalar, texnik hujjatlar hamda ilg'or xorijiy tajribalarni bevosita ingliz tilida o'rganish imkonini yaratadi. Ayniqsa, ilmiy-texnik axborotlarning katta qismi ingliz tilida chop etilishi CLIL texnologiyasining ahamiyatini yanada oshiradi. CLILning ta'lim jarayoniga joriy etilayotganligi unga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani, shuningdek, u orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini standartlashtirish, diplom va malaka darajalarini xalqaro darajada tan olish jarayonlarini yengillashtirish imkoniyati bilan ham izohlanadi. Mazkur texnologiya Yevropa Ittifoqi tomonidan Boloniya jarayoni doirasida faol qo'llab-quvvatlanib, yagona ta'lim makonini shakllantirish yo'lida muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda chet tillarini bilish va erkin muloqot qilish qobiliyati hozirgi kunning dolzarb masalalariga aylangan. Kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib, bu mutaxassislarning xalqaro kasbiy hamjamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlaydi va ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston-2030" strategiyasida "Ta'lim tizimini xalqaro mehnat bozoridagi o'zgarishlar, texnologik jarayonlarga mos tashkil etish, oliygohlardagi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish"¹ masalalari, ta'lim tizimini takomillashtirish, xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini xalqaro muloqot va ilm-fan tili sifatida bilish, xalqaro loyihalar, ilmiy tadqiqotlar va biznes hamkorlikda ishtirok etish, raqamli transformatsiya va global bozor sharoitida ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600404> (murojaat sanasi: 10.01.2025).

2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son “Ta‘lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 34-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda fanlararo aloqalar, integratsion ta‘lim va o‘quv fanlarini ingliz tilida o‘qitish masalalari A.K.Ismoilov, D.Y.Qosimova, G.X.Karimova, S.S.Nishonova, Sh.Sh.Safarov, Sh.S.To‘xtasinova, B.S.Abdullayeva, M.Madaminov, Z.K.Norqo‘ziyeva, S.S.Sharipov, B.Turdaliyev, E.Tovmasyan, J.Abuova, S.Daukayeva, M.M.Mirzakarimova, talabalarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish va egallash bo‘yicha R.S.Abdurahmonova, N.M.Alimova, U.T.Saidov, ingliz tilini nofilologik ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitish bo‘yicha hamda talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha M.I.Axmedova, G.K.Obidova, G.A.Inamova, X.A.Axmadaliyeva, B.A.Umurzakova, N.Sh.Urinova, N.Sh.Abdullayeva, N.K.Xakimova, S.Berdiyeva va L.Begmatova kabi pedagog olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida integratsion ikki tilli ta‘lim va CLIL texnologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar N.I.Batrova, Y.K.Vdovina, K.X.Gadoyev, K.S.Grigoryeva, R.R.Zaripova, L.N.Kuznetsova, A.A.Sirotova, A.M.Kobicheva, T.A.Baranova, E.G.Krylov, L.L.Salehova, S.A.Gudkova, N.V.Yashina, J.A.Suvorova, A.L.Ovchinnikova, E.A.Ulyanenkov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

CLIL texnologiyasining nazariy asoslari va amaliy jihatlarini chuqur tadqiq etgan yetuk xorijiy olimlar safidan D.Koyl, D.Marsh, K.Dalton-Pafer, R. de Graf, G.Kupman, F.Gallardo del Puerto, P. Mehisto, C.Perez-Vidal, R.Lasagabaster, A.Hyuz, S.Lorenzo, A.Do, A.Linares, R.Vitaker kabi mutaxassislarining nomlarini alohida ta‘kidlash mumkin.

Biroq, mamlakatimizda CLIL texnologiyasi va uning nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishiga ta‘siri hali yetarlicha tadqiq qilinmagan. Bu esa ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari va tendensiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi CLIL texnologiyasi asosida oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi iqtisod yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisod yo'nalishi talabalarining ingliz tilini o'rganish jarayonida CLIL texnologiyasi asosida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

CLIL texnologiyasi doirasida metakognitiv yondashuvning konseptual asoslarini hamda uning o'quv jarayonidagi funksional jihatlarini asoslash;

fan va til samarali integratsiyasini ta'minlovchi metod va texnologiyalar orqali iqtisod yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'qitish jarayonini takomillashtirish;

ingliz tilini o'qitishda integrativlik, ko'p vazifalilik, autentlik va differensiallash tamoyillariga asoslangan holda iqtisod yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini baholovchi integrativ o'quv muhitini tashkil etish ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining iqtisod yo'nalishi talabalariga ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish jarayoni belgilab olingan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalarining iqtisod yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni, shakllari, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda samarali o'qitishni ta'minlash uchun bir qator metodlardan foydalanildi, jumladan, nazariy tahlil, analitik taqqoslash, pedagogik kuzatish, suhbat, ekspert bahosi, modellashtirish, asoslash, ta'limiy va yakunlovchi eksperiment, shuningdek, matematik-statistik tahlil.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ingliz tilini o'rgatish jarayonida CLIL texnologiyasi orqali kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahliliiy va tanqidiy fikrlashni faollashtirishga xizmat qiluvchi autentik materiallardan foydalanish hamda ingliz tilida iqtisodiy tushunchalarni kontekstual baholash asosida isbotlangan;

CLIL texnologiyasi til va fan mazmunining integratsiyasi hamda faol kognitiv faoliyatga asoslanganlik kabi didaktik xususiyatlarini hisobga olgan holda metakognitiv yondashuvning konseptual asoslarini real hayotiylik, hamkorlikda ishlash kabi pragmatik o'quv muhitini identivligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

iqtisod yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Step Up" metodikasi,

“scaffolding” va “modelling” texnologiyalari asosida talabalarni loyihaviy ishlarni tashkil etish, baholash va yakuniy tahlil tarkibiy bosqichlarini vertikal integratsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

ingliz tilini o‘qitishda integrativlik, ko‘p vazifalilik, autentlik va differentsiallashtirish tamoyillari orqali iqtisod yo‘nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha olingan natijalar hamda integrativ o‘quv muhitini tashkil etish ko‘rsatkichlari interaktiv monitoring asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oliy ta‘lim muassasalari bakalavriat bosqichi iqtisod yo‘nalishi talabalarini uchun ingliz tilida “Theory of Economics” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan. Ushbu qo‘llanmada joy olgan maxsus mashqlar va kommunikativ topshiriqlar talabalarining ingliz tilida kasbiy kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashqlar va topshiriqlar tizimi turli bilim hamda tayyorgarlik darajasiga ega talabalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, CLIL texnologiyasi asosida darslarni rejalashtirish yoki o‘quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida pedagoglar tomonidan samarali metodik vosita sifatida qo‘llanishi mumkin;

iqtisodiy atamalarni o‘z ichiga oluvchi o‘rganilgan so‘zlarni kontekstda yodlash va ulardan foydalanishni osonlashtirishga yo‘naltirilgan inglizcha-ruscha-o‘zbekcha lug‘at yaratilgan (DGU №008354);

Iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar tomonidan mazmuniy va til kompetensiyalarini kompleks tarzda egallash jarayonini yengillashtirish, shuningdek, kasbiy fanlar mazmuni hamda ingliz tilini samarali o‘zlashtirishni ta‘minlash maqsadida vizual o‘quv vositalari takomillashtirilib, ta‘lim jarayoniga amaliy jihatdan joriy etilgan;

CLIL texnologiyasi tamoyillari asosida takomillashtirilgan, ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Step Up” metodikasi va loyihaviy ishlarni tashkil etish, munozaralar, keys-stadilar, til o‘rganishning misollari (sentence frames) kabi vazifalardan foydalanish orqali iqtisod yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:

Tadqiqotda qo‘llangan yondashuvlar va usullarning ilmiy asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinishi, o‘tkazilgan tahlil va eksperimentlarning samaradorligi, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari matematik-statistik usullari asosida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fan mazmuni va tilni integratsiyalashgan holda o‘rgatish tamoyillari tahlil qilinganligi, CLIL texnologiyasining xususiyatlari ochib berilganligi, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari nofilologik yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida kommunikativ

kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida CLIL texnologiyasini samarali tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati CLIL texnologiyasi asosida fan mazmunini o'qitishga bag'ishlangan zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik majmualar, metodik materiallar va integratsiyalashgan o'qitish dasturlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishidir. Ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda, maxsus kurslar tashkil qilishda va ushbu texnologiyani ta'lim jarayoniga joriy etishda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari iqtisod yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini CLIL texnologiyasi asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishining tahlil natijalari asosida:

ingliz tilini o'rgatish jarayonida CLIL texnologiyasi orqali kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahliliy va tanqidiy fikrlashni faollashtirishga xizmat qiluvchi autentik materiallardan foydalanish hamda ingliz tilida iqtisodiy tushunchalarni kontekstual baholashga doir xulosalar "Theory of economics" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 196489-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, ingliz tili mashg'ulotlarida talabalarining kasbiy kompetensiyasi rivojlantirilgan;

CLIL texnologiyasi til va fan mazmunining integratsiyasi hamda faol kognitiv faoliyatga asoslanganlik kabi didaktik xususiyatlarini hisobga olgan holda metakognitiv yondashuvning konseptual asoslarini real hayotiylik, hamkorlikda ishlash kabi pragmatik o'quv muhitini identivligini ta'minlashga doir amaliy taklif va tavsiyalardan "Theory of economics" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 196489-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarining ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani baholash mezonida qo'yilgan talablar asosida o'rganganlik darajalarining dinamikasi ortgan;

iqtisod yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Step Up" metodikasi, "scaffolding" va "modelling" texnologiyalari asosida talabalarni loyihaviy ishlarni tashkil etish, baholash va yakuniy tahlil tarkibiy bosqichlarini vertikal integratsiya qilishga ga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 2024 yilda Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasining "Xayrli kun" teleko'rsatuvi va "Kun mavzusi" nomli radioeshittirishining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 23 dekabrda 275-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlar va radiotinglovchilar ta'limda CLIL texnologiyasining mohiyati va kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullari haqida ma'lumotga ega bo'ldilar.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy-metodik ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shulardan, 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda CLIL texnologiyasining nazariy va metodik asoslari”** nomli birinchi bobi mazmunan CLIL texnologiyasining didaktik xususiyatlari, ta'lim jarayonida fan va til integratsiyasining nazariy-metodik muammolari, ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ushbu texnologiyaning tutgan o'rni hamda kommunikativ kompetensiyaning faqatgina til bilimiga emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlar bilan bog'liqligi kabi dolzarb masalalarning ilmiy tahliliga bag'ishlangan.

Mazkur bobning birinchi fasli *“CLIL texnologiyasining xususiyatlari va integrativ ta'limning rivojlanishi”* deb nomlanib, unda til o'rgatishda CLIL texnologiyasining nazariy-metodik asoslari, uning oliy ta'lim muassasalarida chet tili vositasida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Globalizatsiya, axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va xalqaro aloqalarning kengayishi sharoitida ingliz tilini bilish kasbiy va akademik muloqotda muhim vositaga aylanadi. Bu talabalarni chet tillarini o'rganishga va ularning kasbiy istiqbollarini yaxshilashga undaydi. Biroq, til o'rgatishning an'anaviy yondashuvlari hanuzgacha qo'llanib kelinmoqda, bunda grammatikani o'rgatishga ortiqcha e'tibor qaratilishi va o'quv soatlarining cheklanganligi til o'rgatish jarayonining samaradorligini pasaytiradi hamda til ko'nikmalarining to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan innovatsion usullarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda, ulardan biri sifatida CLIL texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

CLIL texnologiyasi fan mazmuni va chet tilini integratsiyalashgan holda o'rgatishga asoslanib, darslarda autentik til muhitini tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya talabalar bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga ularning til kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradi, bu esa CLIL texnologiyasining

zamonaviy ta'lim jarayonida yanada dolzarbligini ko'rsatadi. Integratsiyalashgan o'qitishning ildizlari 1960-70-yillarga borib taqaladi, o'sha paytlarda til va fanni o'zaro bog'liq holda o'qitish dasturlari Yevropa mamlakatlarida faol joriy etila boshlagan. Ushbu dasturlar turli sohalardan bilimlarni murakkab muammolarni hal qilish uchun birlashtirishga imkon beradigan fanlararo tamoyillar asosida qurilgan edi.

Biroq, CLIL texnologiyasini joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud. Asosiy to'siqlar orasida o'z fanini chet tilida o'qitishga qodir malakali o'qituvchilarning yetishmasligi va talabalarning chet tilini bilish darajasining yetarli emasligi qayd etiladi. Ushbu qiyinchiliklar CLIL texnologiyasini o'quv dasturlariga kiritishda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Shunga qaramay, CLIL texnologiyasining afzalliklari, jumladan, talabalar motivatsiyasini oshirish, bilimlarini chuqurlashtirish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ushbu texnologiyani talabalarning kasbiy va lingvistik kompetentsiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik vositalardan biriga aylantiradi. Shu tariqa, CLIL texnologiyasi istiqbolli yo'nalish bo'lib, uni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish uchun resurslarning cheklanganligi, fanlarni ingliz tilida o'rgata oladigan malakali kadrlarni yetishmasligi kabi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish zarur.

Mazkur dissertatsiya tadqiqotining 1.2-faslida "*CLIL texnologiyasini o'quv jarayonida qo'llashning asosiy tamoyillari*" mavzusi ko'rib chiqilgan. Unda ushbu texnologiyaning nazariy asoslariga e'tibor qaratilgan. Asosiy diqqat markazi Do Koyl tomonidan ishlab chiqilgan "4C" modeli (fan mazmuni, kommunikatsiya, bilish va madaniy komponent)ga qaratilgan bo'lib, unda mazmun va tilni integratsiya qilishning ko'p qirraliligi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv o'quv materiali bilan muloqot orqali kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishni, tanqidiy fikrlash va metakognitiv strategiyalarni rag'batlantirishni, shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishni talab qiladi. Mazmunning autentikligi va uni o'quvchilarning qiziqishlariga moslashtirish zarurligi alohida ta'kidlanadi, bu esa ularning ishtirokini oshirish va muvaffaqiyatli o'qitishni ta'minlashga yordam beradi.

CLIL texnologiyasi integrativlik (mazmun va til integratsiyasi), ko'p vazifalilik (multitasking), autentik (autentik materiallardan foydalanish) hamda differentsiallashtirish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Integrativlik tamoyili fan mazmuni va tilni o'rganish jarayonining o'zaro uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi hamda tilni o'zlashtirish samaradorligi uni mazmunli va real kontekstlarda qo'llash orqali ta'minlanishi mumkin degan pedagogik g'oyaga tayanadi.

CLIL texnologiyasi doirasida ko'p vazifalilik tamoyili mazmuniy va til ma'lumotlarni bir vaqtda o'zlashtirish zarurati bilan bevosita bog'liq bo'lib, xorijiy til va fanga oid bilimlarni parallel ravishda rivojlantirishga yo'naltirilgan. Biroq mashg'ulotlar davomida xorijiy til bilim darajasi past bo'lgan talabalar o'quv materiallarini to'liq tushunishda va egallashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiy. Mazkur muammoni samarali hal etish maqsadida oldindan tayyorgarlik ko'rish, vizual (ko'rgazmali) vositalardan foydalanish, shuningdek,

murakkab topshiriqlarni bosqichma-bosqich taqdim etish kabi didaktik strategiyalar taklif etilgan.

Autentlik tamoyili esa autentik materiallardan foydalanish orqali talabalarga tilni real hayotiy sharoitda qo'llash imkonini yaratadi va shu bilan birga ularning til hamda fan bo'yicha bilimlarini bir vaqtda rivojlantirishga xizmat qiladi.

CLIL texnologiyasida differentsiallashtirish tamoyili o'quv jarayonini talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganishga bo'lgan ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur tamoyil har bir talabaning fan mazmunini samarali o'zlashtirishi va chet tilidagi kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishi uchun inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan. Talabalarning til bilish darajasidagi farqlarni inobatga olgan holda, turli murakkablikdagi topshiriqlar taqdim etiladi, shuningdek, tushunishni yengillashtirish maqsadida lug'atlar, moslashtirilgan matnlar hamda vizual ko'rsatmalar kabi yordamchi materiallardan foydalaniladi. Bundan tashqari, ta'lim strategiyalari talabalarning individual o'rganish uslublariga moslashtiriladi: audial, vizual va kinestetik yondashuvlarga asoslangan holda ma'ruzalar, audio yozuvlar, infografika hamda interaktiv mashg'ulotlar kabi pedagogik vositalar qo'llaniladi. Talabalarga o'quv materialini o'zlashtirish jarayonini individual tarzda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi, bu esa ayniqsa murakkab til tuzilmalari yoki soha terminologiyasini chuqur o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, CLIL istiqbolli texnologiya bo'lsa-da, uni muvaffaqiyatli joriy qilish o'qituvchilardan puxta tayyorlanish, sifatli o'quv materiallari yaratish va o'quv uslublarini doimiy ravishda moslashtirishni talab qiladi.

Ushbu bobning *“Chet tilida kasbiy kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda CLIL texnologiyasining didaktik imkoniyatlari”* mavzusiga bag'ishlangan uchinchi fasli chet tilida kommunikativ kompetensiya va kasbiy kommunikativ kompetensiya tushunchalari, ularning tarkibiy qismlari, o'rganish yondashuvlarining rivojlanishi hamda ta'lim amaliyotida rivojlantirish usullarini o'rganishga bag'ishlangan.

Kommunikativ kompetensiya tilni ijtimoiy va madaniy me'yorlarni hisobga olgan holda real hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llash qobiliyati sifatida talqin etilib, chet tilini o'rgatishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu konsepsiya D.Xayms² tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u kommunikativ kompetentsiyani grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarni o'z ichiga olgan kompleks tushuncha sifatida shakllantirgan. U lingvistik bilimlar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olish muhimligini ta'kidlagan. Bu tushuncha M.Kanale va M.Suyeyn³ tomonidan kengaytirilgan bo'lib, ular tilning ijtimoiy qo'llanishiga urg'u beruvchi modelni

² Hymes D. On communicative competence // In: Pride J. B., Holmes J. (Eds.). Sociolinguistics. Penguin Education, 1972, – P. 269–293.

³ Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. 1980. Vol. 1, no. 1, – P. 1–47.

yaratgan. S.Savinyon⁴ tilni real hayotdagi vazifalarni hal qilish va kontekstda muloqot qilish uchun qo‘llash muhimligini alohida ta’kidlagan.

S.Kramsh⁵ va J.Blommart⁶ kabi tadqiqotchilar esa ijtimoiy-madaniy omillar ta’siriga e’tibor qaratgan bo‘lib, ular kommunikativ kompetensiya madaniy me’yorlar va qadriyatlar kontekstida rivojlanishini ta’kidlagan. Zamonaviy yondashuvlar, shu jumladan texnologiyalardan foydalanish, ushbu kompetensiyani rivojlantirishga ham yordam beradi.

Ta’lim amaliyotida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish turli yondashuvlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi, masalan, vazifa asosida til o‘rgatish (TBLT) va kommunikativ til o‘rgatish (CLT). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, CLIL texnologiyasi chet tilini o‘rgatish jarayonida, jumladan, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yondashuvlarning samaradorligi talabalarning xususiyatlari va ta’lim sharoitlariga qarab o‘zgaradi.

“Chet tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda CLIL texnologiyasining metodik xususiyatlari va uni oliy ta’limda joriy etish yo‘llari” deb nomlangan ikkinchi bobida CLIL texnologiyasini oliy ta’limda samarali joriy etish yo‘llari, kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik imkoniyatlari, mashg‘ulotlarda og‘zaki muloqotni ta’minlovchi usul va texnologiyalari ilmiy tahlilga tortilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli *“Oliy o‘quv yurtlarida CLIL texnologiyasini joriy etish: muammolar va yechimlar”* deb nomlanib, unda CLIL texnologiyasining oliy ta’lim tizimiga integratsiyasi ilmiy tahlil qilinib, mavjud to‘siqlarga qaramay, CLIL texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish zarurati asoslab berilgan hamda muvaffaqiyatli joriy etish uchun taklif va tavsiyalar belgilangan.

O‘zbekistonda fanlarni ingliz tilida o‘qitish bo‘yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda, bu Prezident Farmonlari va Qarorlariga asoslangan tegishli qonuniy hujjatlarda aks etgan. Biroq, davlatning bu boradagi sa’y-harakatlariga qaramasdan, fan va til integratsiyasi qator muammolarga duch kelmoqda. Ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida ingliz tili chet tili sifatida o‘qitilishiga qaramay, fanlarning ingliz tilida o‘qitilishi, asosan, xususiy universitetlar doirasida amalga oshirilmoqda. CLIL integratsiyasining asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

1. Ingliz tili o‘qituvchilarining ingliz tili va fan mazmunini mashg‘ulotlarda integratsiya qilishga tayyor emasligi muhim muammolardan biridir. Fan o‘qituvchilari esa B2 darajasidagi til kompetensiyasiga ega bo‘lsa-da, maxsus pedagogik tayyorgarlikning yetishmasligi sababli fanlarni ingliz tilida samarali o‘qitishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

2. Differensial yondashuvdagi muammolar. Talabalarning til bilish darajalarining o‘zaro farqli bo‘lishi o‘qitish jarayonini qiyinlashtiradi, materiallarni moslashtirishni va o‘qituvchilardan qo‘shimcha yuklamani talab qiladi.

⁴ Savignon S. J. Communicative Language Teaching: Linguistic Theory and Classroom Practice. New York: McGraw-Hill, 1997.

⁵ Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. Oxford University Press, 1993. P. 54-71.

⁶ Blommaert J. The Sociolinguistics of Globalization. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. P. 31-48.

3. Resurslarning cheklanganligi. Sifatli darsliklar, multimedia materiallari va texnologik vositalarning yetishmasligi darslarga tayyorgarlikni murakkablashtiradi va ularning samaradorligini cheklaydi.

4. Sillabuslarning yetarli darajada kasbiy kommunikatsiyaga yo'naltirilmaganligi. Tahlilimizga ko'ra iqtisod yo'nalishlari uchun ingliz tili fani sillabuslarida kasbiy yo'naltirilgan mavzular chegaralangan. Mavjud sillabuslarni til va fan maqsadlarini integratsiyalashgan holda qayta moslashtirish ko'proq vaqt hamda bu sohada tajribasi bor kadrlarni jalb etishni talab etadi. Ta'lim jarayonida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan, integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlar va sillabuslarni ishlab chiqish zarurati dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Mavjud to'siqlarga qaramasdan, CLIL texnologiyasining integratsiyasi oliy ta'limni rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu texnologiyani muvaffaqiyatli joriy etish uchun maxsus o'quv dasturlari orqali o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'qitishni qo'llab-quvvatlash uchun metodik materiallar va resurslar yaratish, differensial yondashuvni hisobga oluvchi aniq o'qitish strategiyalarini belgilab olish, shuningdek, talabalar bilimni baholash uchun adolatli tizimni shakllantirish zarur. Umuman olganda, CLIL texnologiyasini O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalariga joriy qilish mavjud to'siqlarni bartaraf etishga va sifatli ta'lim jarayonini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi.


Mazkur bobning *“CLIL texnologiyasini kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga integratsiya qilish strategiyalari”* deb nomlangan ikkinchi faslida CLIL texnologiyasi asosida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli (1-rasmga qarang) hamda til va fan mazmunini integratsiyalash strategiyalari orqali talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

Ushbu modeldan ko'rinib turibdiki, iqtisod yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani aks ettiradi. Ushbu maqsad oliy ta'lim uchun belgilangan til va fan kompetensiyalariga qo'yiladigan umumiy talabni ko'rsatadi.

Tilni o'rgatish va o'quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishda qo'llab-quvvatlash (scaffolding) tamoyili muhim ahamiyatga ega. Tilni o'rgatishda qo'llab-quvvatlash “scaffolding” pedagogik texnologiyasi mashg'ulotlarda topshiriqlarini kichik bosqichlarga bo'lish va bosqichma-bosqich o'qitilayotgan material murakkabligini oshirish orqali talabalarga tilni o'rganish va o'rganilayotgan mareriallarni o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan:

Grafik organayzerlar: Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va strukturalashtirish, murakkab ma'lumotlarni soddalashtirish va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Til o'rganishning misollari (sentence frames): Grammatik jihatdan to'g'ri jumlar tuzishga yordam beradi va talabalarga gaplarini strukturalashtirishga yordam beradi.



1-rasm. Ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli

Think-Pair-Share (“O‘yla – Juftlikda muhokama qil – Boshqalar bilan ulash”): Faol muhokama uchun kollaborativ strategiya bo‘lib, talabalarni faol muhokamalarga jalb qilish uchun qo‘llaniladi. Ushbu topshiriq doirasida talabalar avval mustaqil ravishda, so‘ngra juftlikda va keyin guruh tarkibida o‘z fikrlarini ifodalashga rag‘batlantiriladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash, faol tinglash hamda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berib, talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga va o‘z qarashlarini asosli tarzda bayon qilishiga zamin yaratadi.

Jigsaw activities (“Bo‘lib o‘rganish va birlashtirishga asoslangan faoliyatlar”): Talabalar guruhlariga bo‘linib, vazifalarni taqsimlaydi va keyin o‘zaro ma‘lumot almashadi. Hamkorlikda ishlash, ma‘lumotni tahlil qilish va o‘z so‘zlari bilan tushuntirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Model text analysis (“Namunaviy matn tahlili”): Til xususiyatlari va gap tuzilishini o‘rganish uchun ko‘rgazmali matnlarni tahlil qilish orqali talabalarning yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu yondashuvlar talabalarning hozirgi imkoniyatlari va maqsadlari o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etishga yordam beradi va ularni muvaffaqiyatli o‘rganuvchilarga aylantiradi. Mazkur usullar va CLIL texnologiyasining integratsiyasi talabalarni global kasbiy hamjamiyatga tayyorlashda mustahkam zamin yaratadi.

“Talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini CLIL texnologiyasi asosida rivojlantirish metodik tizimi” deb nomlangan ikkinchi bobning ikkinchi faslida kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida hamkorlikka asoslangan, loyiha asosidagi ta‘lim, metakognitiv hamda differensial yondashuvning o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Ushbu strategiyalar talabalarning bilim darajasi va o‘qish tajribasidagi farqlarga moslashish, shuningdek, integrativ ta‘lim muhitini shakllantirish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Hamkorlikka asoslangan ta‘lim va loyiha asosidagi o‘qitish strategiyalari til bilan fan mazmunini integratsiyalashda samarali pedagogik yondashuvlar hisoblanadi. Xususan, loyiha asosidagi ta‘lim talabalarning til va fan sohasidagi bilimlarini amaliyotda qo‘llashni talab qiladigan real hayotiy vazifalarga jalb etadi. Bu jarayon esa ularning kommunikativ kompetensiyasi hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan yondashuvlar talabalarni real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rgatib, ularning analitik va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Metakognitiv yondashuv – bu talabaning o‘z fikrlash jarayonini anglash, nazorat qilish va boshqarishga qaratilgan metodik yo‘nalishdir. Ushbu yondashuvda talaba nafaqat bilimlarni egallaydi, balki o‘z o‘qish strategiyalarini rejalashtirish, monitoring qilish va xatolar ustida ishlash orqali mustaqil rivojlanadi.

Differensial yondashuv talabalarning til bilish darajalarining farqliligini inobatga olgan holda dars jarayonini, o‘rgatish metodikasini va materiallarni talabalarning bilim darajasiga moslashtirish imkonini beradi. Bunday usullar moslashuvchan guruhlash, ko‘p darajali topshiriqlar va tilga oid yordam vositalarini

qo‘llash orqali har bir talabaning ehtiyojlariga mos ta‘lim jarayonini tashkil qilishni ta‘minlaydi.

Mashg‘ulotlarda vizual vositalardan foydalanish murakkab tushunchalarni soddalashtirish va ularning samarali o‘zlashtirilishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Suratlar, videolar va animatsiyalar talabalarga eslab qolish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Grafik organayzerlar, jumladan, konseptual xaritalar, Venn diagrammalari va aqliy xaritalar (mind maps), o‘quv materiallarini tizimlashtirish va mantiqiy tuzilishini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu nafaqat til ko‘nikmalarining rivojlanishiga, balki tanqidiy fikrlashning chuqurlashishiga ham yordam beradi. Shuningdek, interaktiv multimedia taqdimotlari, infografikalar va kengaytirilgan reallik (augmented reality) texnologiyalarining qo‘llanilishi ta‘lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu usullar nafaqat talabalarning e‘tiborini oshiradi, balki ularni faol ishtirok etishga va o‘zaro hamkorlik qilishga rag‘batlantiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining **“Talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish dinamikasi hamda ushbu ish natijalarining tahlili bayon qilingan.

“Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari dasturi” birinchi faslida Farg‘ona, Andijon va Buxoro davlat universitetlarida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari bayon etilgan. Ushbu ta‘lim muassasalarida CLIL texnologiyasi asosida takomillashtirilgan model, “Step Up” metodikasi, mashqlar tizimi va maxsus lug‘at sinovdan o‘tkazilgan.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi iqtisod yo‘nalishi talabalarida kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga oid CLIL texnologiyasidan foydalanish metodikasini tajriba-sinovdan o‘tkazish va samaradorligini bahaholashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotning ushbu bosqichida tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi, tajriba-sinov materiallari, tajriba obyektiga va respondentlar tanlab olindi. Talabalarni ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha matematik-statistik tahlil amalga oshirildi.

Tajriba-sinov bazasi sifatida Farg‘ona davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti va Andijon davlat universiteti tanlangan. Tajriba-sinov ishlariga jami 290 nafar talaba jalb qilingan bo‘lib, shulardan 144 nafari nazorat guruhida, 146 nafari tajriba guruhini tashkil qildi.

Tajriba-sinov jarayoni uch yil mobaynida – 2022-2025-o‘quv yillari oralig‘ida olib borildi. Dastlab talabalarda ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasi qay darajada shakllanganligini va uni qanday amalda qo‘llay olishlari aniqlab olindi. Shundan so‘ng chet tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari, ingliz tilida so‘z boyligini oshirish, xususan, kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar, shuningdek, ingliz tilida gapirish malakasini rivojlantirishning asosiy yo‘llari atroflicha tahlil qilindi.

Tadqiqotda nofilologik yoʻnalishi talabalariga ingliz tili fani sillabusida berilgan mavzularni ingliz tili fani oʻqituvchilari qaysi usullar yordamida oʻrgatishlari ham oʻrganildi. Bunda ingliz tilini oʻrgatish va oʻrganishda, talabalarning ogʻzaki nutqi rivojlanishi, ingliz tilida ravon soʻzlash va toʻgʻri talaffuzga oʻrgatish, ularning soʻz boyligini oshirishda muammolar mavjudligi aniqlandi. Buning asosiy sababini oʻrganish jarayonida 2022 yilining aprel, may oylarida Fargʻona davlat universiteti, Buhoro davlat universiteti va Andijon davlat universiteti chet tillari kafedrasida faoliyat olib borayotgan ingliz tili oʻqituvchilari bilan suhbatlar oʻtkazilgan va ular guruhlarda talabalarning sonining koʻpligi, talabalarda soʻz boyligining kamligi, darsda har bir talabaga gapirish uchun vaqt yetarli emasligi kabi dalillarni koʻrsatganlar.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf qilish uchun ingliz tilini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega omillar hamda mashgʻulotlar jarayonida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan usul va texnologiyalar aniqlandi. Shundan soʻng, tajriba-sinov natijasini aniqlash maqsadida tajriba guruhlarida yana yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mashgʻulotlar tashkil etildi. Tajriba guruhlarida ikkinchi bobda taklif etilgan usullar hamda koʻproq axborot va visual vositalaridan foydalangan holda mashgʻulotlar olib borildi.

“Talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish boʻyicha tajriba-sinov natijalari tahlili” boʻlimida kasbiy kommunikativ kompetensiyasining shakllanganlik darajasini baholash mezonlari asosida toʻplangan statistik maʼlumotlar, shuningdek, ingliz tili darslarida CLIL texnologiyasidan foydalanish samaradorligini baholash uchun oʻtkazilgan testlar va soʻrovlar natijalari tahlil qilindi.

CLIL texnologiyasining samaradorligini aniqlash uchun tajriba boshida va yakunida olingan natijalar asosida solishtirma tahlil oʻtkazildi.

Quyida tajribadan oldin (t.o.) va tajribadan keyin (t.k.) olingan umumiy statistik koʻrsatkichlar jadvali keltirilgan:

1-jadval

Iqtisod yoʻnalishi talabalari kasbiy kommunikativ kompetensiyasini CLIL texnologiyasi asosida rivojlantirish (tajribadan oldin (t.o.) va tajriba keyin (t.k.) statistik koʻrsatkichlari umumiy jadvali)

